


IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI

5 NOYABR / 2021 YIL / 12 – SON


| | |
|---|---|
| **Urunova Shahlo Rafiqovna**<br>*ANIQ MAQSADLI INGLIZ TILI* | 9 |
| **Astanaqulova Nargiza Ravshan qizi**<br>*MAKTABLARDA INFORMATIKA FANINI INOVATSION O'QITISH YO'LLARI* | 12 |
| **Azimova Mahmuda Sharobiddinovna**<br>*BOSHLANG'ICH SINFLARDA INNOVATSION TA'LIMINING AHAMIYATI* | 15 |
| **Davronova Guzal Mardanovna**<br>*BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARDA IJODIY QOBILIYATLARNI TAKOMILLASHTIRISH, MUSIQA TA'LIMINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA* | 18 |
| **Mamadjanov Arabboy Vahobjonovich**<br>*BUGUNGI KUNDA INGLIZ TILINI O'RGANISH QANCHALIK DOLZARB?* | 22 |
| **Xushnazarova Dildora Shaxriyorovna**<br>*O'QISH DARSLARINI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA VA KOMPETENSIYALARDAN FOYDALANISHNING SHAKLLARI* | 25 |
| **Djabborova Nodira Axmadjonovna**<br>*THE USE OF GAMES FOR TEACHING VOCABULARY IN EFL CLASSROOMS* | 28 |
| **Erkabayeva Nigora Xamidovna**<br>*MILLIY TILNI O'QITISHDA INNOVATSION USULLAR* | 32 |
| **Fazilova Indira Batirbaevna**<br>*ONLY SCIENCE CAN SAVE US* | 34 |
| **Hurulvoyev Shukrullo Abdullajonovich**<br>*INGLIZ TILIDA SANALADIGAN VA SANALMAYDIGAN OTLAR VA ULARNING GAPDA QO'LLANILISHI* | 36 |
| **Alimbayeva Mushtariy Baxodirovna**<br>*INGLIZ TILI O'QITISH METODIKASI* | 40 |
| **Yuldasheva Laziza Ravshanovna**<br>*INGLIZ TILINI NECHA YOSHDAN BOSHLAB O'RGANISH KERAK?* | 42 |
| **Abduvoitov Ravshanbek Alijonovich**<br>*INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAQOLLAR VA FRAZEOLOGIK SO'ZLARNING TAHLILI* | 45 |
| **Aliyev Sherzod Shuhratovich**<br>*JAMOAT XAVFSIZLIGI BO'YICHA FAOLIYAT OLIB BORUVCHI BO'LINMALARDA SHAXSIY TARKIBNI XIZMATGA TAYYORLASH* | 48 |
| **Yaxyoyev Dilmurod Karimovich**<br>*JISMONIY CHINIQISHGA ERISHISH UCHUN TO'G'RI OVQATLANISHGA E'TIBOR QARATISH* | 51 |
| **Mamadaliyeva Xilolaxon Zokirovna**<br>*MAKTABDA SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI ISHLARDA O'QUVCHILARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA VA ULARNING ISTE'DODI VA QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA SINF RAHBARINING O'RNI* | 53 |
| **Suyunov Abdunor Miltikbaevich**<br>**G'ofurova Zebo Sobit qizi,**<br>**Jumanova Go'zaloon Jamoljon qizi**<br>*RESPUBLIKA IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO MOLIYA INSTITUTLARINING ROLI* | 56 |
| **O.A.Ortiqov**<br>**J.R.Karimboyev**<br>**U.N.Rixsiboyev**<br>*OLIY TA'LIM TALABALARI UCHUN MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH* | 63 |
| **Babaeva Gulnozaxon Latibjonovna**<br>*NUTQ TURLARI VA SHAKLLARI TAXLILI* | 66 |
| **Shaykulov Shuxrat Shodiyevich**<br>*MUSIQA FANLARINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH* | 73 |
| **Norbayeva Zevarjon Tangriberganovna**<br>*MAKTABLARDA O'QUVCHILARGA ZAMONAVIY TA'LIM BERISH* | 77 |
| **Nozima Yuldasheva Solijonovna**<br>*O'TKIR HOSHIMOVNING HAYOTI VA IJODI* | 79 |
| **Xoliqova Shahnozaxon Azimjonovna** | 82 |

# OLIY TA'LIM TALABALARI UCHUN MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISH

**O.A.Ortiqov**
*Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti PhD. dotsent*
**J.R.Karimboyev**
*Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti assistent*
**U.N.Rixsiboyev**
*Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti t.f.n.dotsent*

**Annotatsiya:** *Maqolada oliy o'quv yurtlari talabalarining mustaqil ishini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma berilgan.*

**Аннотация:** *В статье приведены методические рекомендации по организации самостоятельного обучения студентов высших учебных заведений.*

**Abstract:** *The article provides guidelines for the organization of self-study of students of higher educational institutions.*

**Kalit so'zlar:** *Mustaqil ta'lim, seminar, intellektual, motivasiya, referat, laboratoriya.*

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 19-mayda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni O'zbekistonda ta'lim tizimini takomillashtirish asosi hisoblanadi. Ishlab chiqilgan bu yangi qonun yuksak umumiy va kasbiy madaniyatga ega bo'lgan, ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil holda harakat qila oladigan, kelajakka qaratilgan vazifalarini qo'ya olish va ularni yechishga qodir bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan. Mamlakatning intelektual salohiyatini oshirish, davlat ta'limi standarti talablariga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Qaysi sohada bo'lmasin bilimlarni mustaqil ravishda egallashga intilish-talaba faoliyatining ta'lim muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o'qib, bilim orttirish asosi hisoblanadi. Ta'lim tizimida mustaqil bilim olish, nazorat qilish mustaqil ta'lim olishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Mustaqil bilim olishda avvalo, talabalarga mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy faoliyat yuritishga va eng asosiysi mustaqil fikrlashga ehtiyojni shakllantirish lozim.

Talabalar mustaqil ta`limining asosiy maqsadi-o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida yoki mustaqil ravishda talabada muayyan o'quv ishlarining mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Mustaqil ta`limining asosiy vazifalarida quyidagilar aks etadi:

- axborot manbalari (adabiyotlar, gazeta va jurnallar, internet saytlari) dan samarali foydalangan holda kerakli ma`lumotlarni izlab topa olish ko'nikmasiga ega bo'lishlari, uning qulay usullari va vositalarini aniqlashi,

-talabalarning mavzularga oid yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi,

-me`yoriy hujjatlar, elektron o'quv va ilmiy adabiyotlar, o'quv adabiyotlar va ma`lumotlar banki bilan ishlay olishi, internet tarmog'idan maqsadli foydalanishi, turli topshiriqlarni bajarishda ijodiy yondasha olishi nazarda tutiladi.





Talabalar mustaqil ish va amaliy mashg'ulotlarni turli shakllarda bajarishadi, chunki mustaqil olingan bilimlarning o'rni, kuchi va qiymati yuqoridir.

Mustaqil ta'lim- bu maqsad, vazifa, ifoda shakli va natijani tekshirishga ega bo'lgan talabalarning faoliyati. Ularni ushbu faoliyatni turini tashkillashtirish va rag'batlantirishga ko'mak berish fan o'qituvchilarining vazifasidir. Faqatgina o'qituvchi talabaning yoshini, uning shaxsiy fazilatlarini inobatga olishi, talabalar xotirasi va e'tiboriga yuklarni teng taqsimlashi ularning mustaqil ta'lim olish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

O'qituvchi talabalar bilan ishlaganda talabaning ayrim jixatlariga e'tibor bermoqligi lozim bo'ladi:

- bilim olishga ehtiyojini;
- hayotiy tajribasini;
- intellektual mahoratini;
- bilim olishga yondashuvini;
- o'qishga ishtiyoqini;
- fe`l-atvorini;
- ma`lumotlarni qabul qilish qobiliyatini;
- tarbiyasini;
- til bilishini;
- kompyuter savodxonligini;

Talabaning turli xil fanlardan mustaqil ishlashi samaradorligi birinchi navbatda uning shaxsiy fazilatlari, intizomi, motivatsion munosabati, xotira, e'tibor, ixtiyoriy fazilatlar va boshqalar kabi aqliy fazilatlarga bog'liq, ammo samarali mustaqil ishlashning asosiy shartlaridan biri bu ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Talabalar mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlari, shuningdek har bir talabaning o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanilishini tavsiya qilishimiz mumkin:

- Ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- Berilgan mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- Seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- Labaratorya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish;
- Loyihalar va amaliy topshiriqlarni bajarish;
- Ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish
- Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- Amaliyotdagi mavjud muammolarni yechimlarni topish;
- Maket, model va namunalar yaratish
- Hisoblashlar va grafik ishlarni bajarish
- Berilgan mavzu bo'yicha kompyuterlardan kerakli ma'lumotlarni mustaqil izlab topish va referat tayyorlash
- Elektron darsliklardan foydalanib topshiriqlarni bajarish.

So'nggi yillarda talabalarning mustaqil ta`limini tashkil etish sohasida ma`lum tajribalar bo'lsada, bu ishlarda sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Shuni alohida takidlash joizki, talabaning tor yoki keng ma`noda bo'ladimi baribir shu mustaqil ta`limsiz ta`limni